



UDK:091

Sarvinov ISMATOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti magistranti
E-mail:ismatovasa@gmail.com

O'zMU dotsenti D.Fayzixodjayeva taqrizi asosida

BURHONUDDIN MARG'INONIYNING "HIDOYA" ASARI HANAFIY MAZHABIGA OID FIQH MANBASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada islom huquqshunosligi tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk olim Burhonuddin Marg'inoniy hayoti, faoliyati haqida qisqacha ma'lumot berilgan. Shuningdek, uning "Hidoya" asari hanafiy mazhabining mo'tabar fiqhiy manbalaridan biri sifatida olimlar tomonidan o'rganilganligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Burhonuddin Marg'inoniy, Hidoya, islom huquqshunosligi, hanafiy mazhabi, faqih, ilmiy meros.

БУРХАНУДДИН МАРГИНАНИ И ЕГО ТРУД "ХИДАЯ" КАК ИСТОЧНИК ФИКХА ХАНАФИТСКОГО МАЗХАБА

Аннотация

В данной статье представлена краткая информация о жизни и деятельности великого учёного Бурхануддина Маргинани, оставившего глубокий след в истории исламского правоведения. Также анализируется тот факт, что его труд "Хидая" изучался учёными как один из авторитетных источников фикха ханафитского мазхаба.

Ключевые слова: Бурхануддин Маргинани, Хидая, исламское правоведение, ханафитский мазхаб, факих, научное наследие.

BURHANUDDIN MARGHINANI'S WORK "HIDAYAH" AS A FIQH SOURCE OF HANAFI SCHOOL

Annotation

This article provides brief information about the life and activities of the great scholar Burhanuddin Marghinani, who left a deep mark in the history of Islamic jurisprudence. It also analyzes the fact that his work "Hidayah" has been studied by scholars as one of the authoritative fiqh sources of the Hanafi school.

Key words: Burhanuddin Marghinani, Hidayah, Islamic jurisprudence, Hanafi school, faqih, scientific heritage.

Kirish. Imom al-Marg'inoniy faqih, Qur'on hofizi, muhaddis, mufassir, barcha ilmu fanni o'rganib o'zlashtirgan iqtidorli ustod, o'tkir nazar bilan tekshiruvchi va diqqat bilan ish yurituvchi zohid, mutaqqiy, mahorat va fazilatlar egasi, usuliy (fiqh usullari ilmini chuqur biluvchi), ilmu adabda misli ko'rilmagan adib va shoir, ilmu-l-xilof va mazhab sohalari bo'yicha yuksak salohiyatga ega bir zot edi [1]. (Abdullah Laknaviy)

Kirish. Bugungi kunda, yurtimizda ajdodlarimiz ilmiy merosini o'rganishga katta e'tibor berilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 24-may kuni imzolagan «Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorda belgilanganidek, yurtimizda kamol topgan islom olamining mutafakkirlari asarlari va ularning jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan hissasini chuqur o'rganish, yosh avlodni allomalarimiz hayoti va ilmiy merosi bilan yaqindan tanishtirish, ularga nisbatan hurmat, milliy g'urur va faxr tuyg'ularini tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi [2].

Biz yoshlar oldida ko'ndalang bo'lib turgan vazifalardan biri esa yurtimizni dunyoga tanitgan mutafakkirlarimiz ilmiy faoliyatini o'rganish, boy merosini chuqur tahlil qilishdan iboratdir. Chunki, bu meros bizning tarixiy ildizimiz, milliy g'ururimiz va mustahkam ma'naviy tayanchimizdir.

Shu nuqtai nazardan ushbu maqolada fiqh ilmining rivojiga sezilarli darajada hissa qo'shgan hadislar bilimdoni, mashhur fiqshunos olim Burhonuddin Marg'inoniyning shoh

asari hisoblangan "Hidoya"ni ba'zi manbalar orqali olimlar tahlilida yoritib berishni maqsad qilib qo'ydik.

Zero, muhtaram birinchi prezidentimiz Islom Karimov ham alloma faoliyatiga: «Nafaqat musulmon olami, balki butun dunyo e'tirof etgan, Alloh taolo bergan aql-zakovati bilan islom huquqshunosligi ilmida o'ziga xos maktab yaratgan, bebaho merosi bilan mana shu Farg'ona diyorini jahonga tarannum etgan ul zotning tariximizdagi o'rni va obro'si beqiyosdir» [3], – deya yuksak baho bergan edi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Buyuk vatandoshimiz shayxulislom Burhonuddin Marg'inoniy ilmiy merosi nafaqat yurtimizda, qolaversa Sharq va G'arb olimlari tomonidan turli davrlarda mufassal o'rganilib, tadqiqot doirasida muhim manbalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Jumladan, G'arb tadqiqotchilari orasida islom huquqi tarixi bo'yicha mashhur nemis sharqshunosi Joseph Schacht «Islom huquqshunosligining kelib chiqishi», ingliz huquqshunosi Noel J.Koulson «Islom huquqi tarixi» hamda islom huquqi tadqiqotchisi Wael B.Hallaq «Islom huquq nazariyalari tarixi» nomli kitoblari islom huquqi tarixini o'rganish barobarida hanafiy fiqhining shakllanish jarayonida faqihning qo'shgan hissanini alohida ta'kidlashgan. 1958 yili Majid Xadduriy va Xebert Libes tomonidan nashr etilgan «Islomda huquq» nomli kitobda asosan «Hidoya»dan keng foydalanilgan [4]. Ya'ni Meronning «Marg'inoniy uning uslubi va huquqshunosligi» nomli kitobida esa Marg'inoniy fiqhining metodologiyasi chuqur tahlil qilingan.

Turkiya Respublikasida yozilgan Husayin Kayapinarning "Marg'inoniy va uning Hidoya asari", Ahmet

O'zelning "Hanafi fiqh olimlari", Murtaza Ko'shening "Farg'onalik bir huquqshunos olim Marg'inoniy va uning Hidoya nomli asari", Ferhat Kojaning "Burhonuddin Marg'inoniy", Murat Shimshekning "Bir Hanafi Klassigi: Marg'inoniyning Al-Hidoya asari va unga oid tadqiqotlar" nomli ilmiy maqolalarida faqihning hayoti, ijodi, uning shoh asari bo'lmish "Hidoya"ning islom huquqshunosligi rivojida tutgan o'rni, ahamiyati ochib berilgan hamda boshqa asarlar bilan qiyosiy tahlil qilingan. Bundan tashqari, asar ustida olib borilgan zamonaviy tadqiqotlar ro'yhati keltirilgan.

O'lkamizda mutafakkir hayoti va ijodini o'rganish mustaqillik yillaridan boshlangan. Bu sharaflilik ishda bir necha tadqiqotchi olimlarimizning ko'rsatgan xizmatlari tahsinga loyiq. Jumladan, A.Saidov, S.Muhiddinov, O.Qoriyev, K.Kattayev, A.Ikromjonov, I.Bekmirzayev, A.Juzjoniy, M.Xasaniy, Z.Muqimov, N.Abdulaxatov, T.G'oziyev, M.Nuriddinov, A.Mo'minov, O.G'ofurov, M.Amonov, O.Sarsenboyev, S.Masaidov, J.Toshqulov, M.Shoxadjayev, N.Yusupova kabi bir qancha olimlarimiz alloma ijodi-faoliyatini o'rganish, uning asarlarini tarjima qilish, tahlil etish borasida salmoqli ilmiy asarlar yaratishgan. Bundan tashqari Shayx Muhammad Sadiq Muhammad Yusuf o'zining "Fihiy yo'nalish" nomli kitobining alohida bobida alloma ilmiy merosiga to'xtalib o'tgan. S.Jamalov, D.Elova, P.Sharipova, S.Bo'ltakov, S.Axrorov, N.Malikova, I.Nuriddinov, M.Isoqjonov, E.G'aniyev, S.Muhammadiyev, G.Muhammadiyeva kabi ilmiy izlanuvchilar alloma ijodi tahlil qilingan maqolalar yozishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotni amalga oshirishda tarixiylik va tizimlilik tamoyili hamda ilmiy bilishning analiz va sintez, umumlashtirish kabi usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Muallif Burhonuddin Abulhasan Ali ibn Abu Bakr ibn Abduljalil al-Farg'oniy al-Rishtoniy al-Marg'inoniy 1123 yil hozirgi Marg'ilon yaqinida Rishton tumanida tug'ilib, 1197 yil Samarqandda olamdan o'tgan. [5] Alloma tarjimai holini Muhammad Abdulhay Laknaviy, Ahmad Toshko'prizoda, Abu Farros al-Gassoniy kabi islom huquqi tarixchilari tahlil qilishgan.

Marg'inoniy ziyoli oilada ulg'ayib, uning oila a'zolari kichikligidan ma'rifatli bo'lishiga katta e'tibor qaratgan. Alloma ta'limni dastlab otasi Abu Bakr ibn Abduljalil so'ngra bobosi Qozi Umar ibn Habibdan olganligi manbalarda keltiriladi. Toshko'prizodaning fikriga ko'ra, Marg'inoniylar oilasi asrlar davomida din ilmi bilan mashg'ul bo'lgan. Marg'inoniyning otasi Abu Bakr ibn Abduljalil o'z zamonasida tanilgan ulamolardan bo'lgan. Uning bobosi Umar ibn Habib o'z zamonasining mashhur faqihlardan biri bo'lib, ilmiy majlislarda muhim diniy masalalarni hal qilishda faol ishtirok etgan. Shu bilan birga, Marg'inoniyning amakilari ham taniqli ulamolar bo'lgan [6].

Marg'inoniyning ustozlari xususida "Kitab al-Mashhoix" ("Shayxlar haqidagi kitob") nomli asarda ma'lumot beriladi. Bu kitobda qirqdan ziyod olimlarning nomlari keltirilgan [7]. Ustozlari ro'yxatining boshida Najmuddin Abu Hafs Umar Nasafiy (461/1069-537/1143)ning ismi turadi.

Marg'inoniy bolaligidan Qur'onni to'liq yod olgan va Hadis ilmini mukammal o'rgangan. Abdulhakim Shar'iy Juzjoniyning bayon qilishicha, allomaning yuksak iste'dodi va izchil faoliyati sababli hanafiy mazhabi bo'yicha buyuk faqih va mujtahid darajasiga ko'tarilib, Shayxulislom unvoniga sazovor bo'lgan.

Burhonuddin Marg'inoniy o'z zamonasining yetuk faqihlaridan biri bolib, fiqh fanining rivojiga sezilarli darajada hissa qo'shgan allomadir. U islom fiqhi asoslariga doir bir nechta ilmiy asarlar muallifidir. Uning bizgacha yetib kelgan asosiy fihiy asarlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

1. Kitab majmu'ul navozil (Yangi yuzaga kelgan masalalarga oid to'plam) yoki Muxtorotun-navozil deb ham ataladi;
2. Kitabul tajnis val mazid (Fiqhni sohalarga ajratish va fiqhga oid masalalarga qo'shimcha kiritish kitobi);
3. Kitabul faroiz (Meros haqidagi kitob);
4. Kitabul muntaqo (Tanlangan fatvolar kitobi);
5. Bidoyatul muftadiy (Boshlovchilar uchun boshlang'ich ta'lim);
6. Kifoyatul muntahiy (Yakunlovchilarga kifoya qilarlik ta'lim);
7. Nashrul mazhab (Mazhabni yoyish);
8. Manosikul haj (Haj arkonlari);
9. Hidoya fi sharhi bidoyatul muftadiy (Boshlovchilar uchun dastlabki ta'lim asariga sharh – to'g'ri yo'lga boshlovchi kitob)[8].

Ular orasida mashxurrog'i faqihning "Hidoya" asari hisoblanadi. "Hidoya" to'rt jildan iborat bo'lib, birinchi jildi 5 kitobdan, ikkinchi jildi 14 kitobdan, uchinchi jildi 22 kitobdan, to'rtinchi jildi 16 kitobdan iborat [9] bo'lib, umumiy soni 57 ta kitobni tashkil etadi. Kitoblari o'z navbatida 165 bob va 152 fasllarga bo'linadi. Asar islom huquqining barcha sohalarini o'z ichiga qamrab oladi.

Burhonuddin Marg'inoniy "Hidoya" kitobida huquqiy muammolarni yechish jarayonida nafaqat to'rtta asosiy mazhab (hanafiy, molikiy, shofei mazhablari), balki Zohiriy va Avzo'iy mazhablariga doir fikr va mulohazalarni ham, o'rni kelganda berib o'tgan va har biri haqida o'z nuqtai nazarini bildirgan [10].

"Hidoya" kitobi xususida Burhonuddin o'g'illaridan biri Imomiddin quyidagi arabcha bayt bitgan bo'lib, bu baytning mazmuni shunday:

"Hidoya kitobi hidoyati yo'lga yetaklaydi va oqizlar yo'lini yoritadi, Shunday ekan uni lozim deb bil, uni yodlab ol, ey aql egasi, kimki uni o'zlashtirsa, eng oliy maqsadga erishgan bo'ladi"[11].

Mashxur qomusiy olim Ahmad Toshko'prizoda (vaf. 968/1561) "Hidoya" haqida so'z borganda uning xususiyatlarini quyidagicha sanab o'tadi:

"Bu asar muxtasar, nafis, foydali, mukammal, go'zallik, takrir, tahrir (bayon), tartib va aniqlik jihatidan nihoyatda yuksakdir" [12].

O'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili Zahiriddin Muhammad Bobur asar to'g'risida yozar ekan: "Imom Abu Hanifa mazhabida "Hidoya"dan mo'tabarroq kitob fiqh ilmida kam, uning muallifi ham Farg'onaning Marg'inon nomli viloyatidir, bu ham Movarounnahrda kiradi" – deydi[13].

Alloma al-Haddod esa, uning ustidan yozgan hoshiyasida ushbu so'zlarni bitgan ekan: «Qur'on kitobi qanday qilib o'zidan ilgari dinlarni mansux (bekor) qilgan bo'lsa, «Al-Hidoya» kitobi ham o'zidan ilgari shariat bo'yicha yozilgan barcha asarlarni e'tiborsiz qoldirdi».

Doktor Zabihullo Safo: «Burhoniddin Marg'inoniyning "Hidoya" kitobi hanafiy faqihlari orasida katta ahamiyat va e'tibor kasb etib, uning ustidan ko'p sharhlar yozilgan», - deb ta'kidlaydi [14]. Aynan shu sharhlar orqali allomaning "Hidoya"si yuksak maqomga erishgan.

O'zbek huquqshunos olimlari A.Saidov hamda A.Juzjoniy: «Hidoya - mumtoz tadqiqot sifatida har bir qozining birinchi yordamchisi, shariatning eng qiyin masalalarini va huquqiy chigalliklarini hal etishda rahbar qo'llanma bo'lgan» [15] - deya asarning shon-shuxratiga baho berishadi.

Yuqorida bayon etilgan fikrlar va yana boshqa ko'plab tadqiqotchilar tomonidan bildirilgan ijobiy baholar "Hidoya" asarining qanchalik ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

“Hidoya” asariga e’tibor yuqori bo’lganidan fors, ingliz, turk, rus, urdu va boshqa dunyoning ko’plab tillariga tarjima qilinib, g’arb olimlari uchun ham mazhabimizni o’rganishda qiymatli manba sifatida foydalanilmoqda. Dastlab, asar G’ulom Yahyoxon, Tojuddin Bangoliy, Mir Muhammad Husayn va Shariatulloh Sambhaliy tomonidan fors tiliga (Kalkutta 1807; I-IV, Laknov 1874), bu tarjima asos qilib olinib Charls Hamelton tomonidan ingliz tiliga (I-IV, The Hedaya or Guide, London 1791, arabcha matni bilan birga; London 1870, 1957, 1963; Lahor 1870, ayrim bo’limlari chiqarib tashlangan holda; Leiden 1977), Hasan Ege (Hidāye Tercemesi, I-III, Istanbul 1982-1984) va Ahmed Meylani (el-Hidāye Tercemesi, Istanbul 1991) tomonidan turk tiliga tarjima qilingan[16].

Najmiddin Erbakan universiteti dotsenti Murat Shimshek o’zining “Bir Hanafi Klassigi: Marg’inoniyning Al-Hidoya asari va unga oid tadqiqotlar” nomli ilmiy maqolasida “Hidoya”ni General N. Gredokov ingliz tilidan rus tiliga tarjima qildirganini (“Хидая. Комментарии мусульманского права” 1-4том, Ташкент, 1893), shuningdek, asarning urdu tilida 4 jildi tarjima qilinganini yozadi. (Sayyid Amir Ali Melihabadi (1858-1919) “Aynü’l-Hidāye”) [17]

«Hidoya» arab tilidan o’zbek tiliga taniqli olim S. Muhitdinov rahbarligida bir guruh yosh olimlar tomonidan tarjima qilinib, uning birinchi jildi prof. A.X.Saidovning katta ilmiy so’zboshisi bilan 2000 yilda «Adolat» nashriyotida bosmadan chiqarildi [18].

“Al-Hidoya” ma’nolarining kengligi va uslubining o’ziga xosligi sabab ko’plab ulamolarning e’tiborini tortgan. Ba’zi ulamolar, masalan Sirojiddin Kanoniy (vaf. 829/1426) “al-Hidoya”ni butun hayoti davomida takror-takror o’qib,

undan talabalarga dars bergani uchun “قارئ الهداية” (al-Hidoya qorisi) deya e’tirof qilingan. Muhammad ibn Hasan Halabiy (vaf. 879/1474), Hofiz Jamoliddin Zarandiy (vaf. 750/1349) va Abu Abbos Sarujiy (vaf. 710/1310) kabi olimlar esa “al-Hidoya”ni yod olishgan. [19] Hozirda ba’zi yurtlarda, jumladan, Iroqda “Hidoya”ni yod olmagan odam faqih hisoblanmaydi[20].

Shunday qilib, “Hidoya” hanafiylik fiqhining to’rt asrlik rivojiga yakun yasadi[21]. O’z ismi bilan dovrug’ taratgan imomning qalamiga mansub “Hidoya” asari huquq ilmi borasida o’ta mukammal ekanligini nafaqat islom olami, hatto yevropa ahli ilmlari ham e’tirof etishgan[22]. Darhaqiqat, imom Burhonuddin Marg’inoniy va uning “Hidoya” asari fiqh olamida chaqnagan yorug’ yulduz bo’lib butun islom diyorini asrlar davomida nurafshon ayladi.

Xulosa va takliflar. Ushbu maqola xotima qismida yana shuni ham eslatib o’tish joizki, tarixda ham, hozirgi kunda ham olib borilgan tadqiqotlar “Hidoya”ning hanafiy furu’ ul-fiqh adabiyotidagi o’rni yetarli darajada ko’rsatib bermoqda. Shu sababli, Marg’inoniy ilmiy merosini o’rganish — nafaqat fiqh ilmining tarixiy ildizlarini anglash, balki bugungi kunda huquqiy madaniyatni rivojlantirish va ma’naviy merosimizni asrab-avaylash uchun muhim hisoblanadi. Bundan tashqari, allomaning “Hidoya” asari hozirgi davr huquqshunolariga, umuman, o’tmish tariximizga qiziquvchi barchaga birdek ma’naviy ruh beradi hamda ilmiy izlanishlari uchun bebaho manba bo’lib xizmat qiladi. Bizning fikrimizcha, faqih ilmiy merosi, uning fiqh tafakkuri, asarlarida huquqiy masalalarini mantiqiy argumentlash metodlarini tahlil qilish, tadqiq etishga arzigulik mavzudir.

ADABIYOTLAR

1. Абд уль-Хай ал-Ланкави. Аль-фаваид аль-бахийа фи Тараджим аль-Ханафийа. Казань, 1903. С. 171-174.
2. Elektron manba: <https://www.muslim.uz/uz/e/post/14200-allomalarimizning-boy-ilmiy-faoliyati-zamonaviy-ilm-fan-rivoji-uchun-poydevordir>
3. Islom Karimov. Burhoniddin Marg’inoniy tavalludining 910 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimda so’zlagan nuqt // Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas’ulmiz. T. 9., Toshkent – 2001. 70 b.
4. Nuriddinov I. Burxoniddin Marg’inoniyning ilmiy merosiga nazariy yondashuv // Oriental journal of history, politics and law, Toshkent – 2025. № 4, 62 b. <https://supportscience.uz/index.php/ojhp/article/view/1938>
5. Jamalov S. «Al-Hidoya»ning asriy hidoyasi // «INFOLIB» axborot-kutubxona xabarnomasi, Toshkent – 2018. № 4, 76 b. <https://einfolib.uz/post/al-hidoyaning-asriy-hidoyasi>
6. Md.Toha. Burhan al Din al Marghinani and the Status Of His Al-Hidaya in the Hanafi School of Thought // Islami Ain O Bichar. Vol.17, Issue 66. April-June 2021. – 107 pp <https://www.researchgate.net/publication/378546847>
7. Qoriyev O. Burhonuddin Marg’inoniy – Toshkent: O’zbekiston, 2011. – 6 b.
8. Burhonuddin Marg’inoniy. “Hidoya sharh bidoyatil muftadi”. 1-juz –Toshkent: Hilol-Nashr, 2022. – 16 b.
9. Mahmud Hasaniy. Al-Marg’inoniyning “Hidoya” asari va unga yozilgan sharhlar. – T: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2000. – 18 b.
10. Bekmirzayev I.I., Kambarov A.M. “Hidoya” asarining yozilish tarixi va uning turli tillardagi tarjimalari // Moturidiylik, (01/2023) – 23 b. https://www.maturidijournal.uz/articles/view/132?utm_source
11. Abdulahatov N., G’oziyev T. Burhoniddin Marg’inoniy: tarixiy haqiqat va asotirlar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. – 6 b.
12. Taşköprizâde, Miftâhü’s-sa’âde, c. 2, s. 238.
13. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T: O’qituvchi, 2008. – 55 b.
14. Jumayeva N.A. Sharq allomalarining ilmiy merosi. O’quv qo’llanma. – Buxoro: Durdona, 2022. –167 b.
15. Saidov A., Juzjoniy A. Sharq va inson huquqlari. – Toshkent: Ijtimoiy fikr, 1998. – 98 b.
16. Elektron manba: <https://islamansiklopedisi.org.tr/el-hidaye>
17. Şimşek, M. (2014). Bir Hanefi Klasığı: Merginani’nin el-Hidaye’si ve Üzerine Yapılan Çalışmalar. Türkiye Araştırmaları Literatür Dergisi, 12(23), 279-321. s. 318. <https://dergipark.org.tr/tr/pub/talid/issue/46962/589362>
18. Jumayeva N.A. Sharq allomalarining ilmiy merosi. O’quv qo’llanma. – Buxoro: Durdona, 2022. –167 b.
19. Bobonazarov D. Jamoliddin Zaylaiyning “Nasbu-r-roya” asari hanafiy mazhabiga oid hadis manbasi. Avtoreferat. Islomshunoslik fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan dissertatsiya. 24.00.02 – Qur’onshunoslik. Hadisshunoslik. Toshkent, 2024. – 16 b.
20. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Fiqhiy yo’nalish va kitoblar. – T: Hilol-Nashr, 2022. – 212 b.
21. Isxakov S.A., Raxmanov A.R. Musulmon huquqi: IIV oliy ta’lim muassasalari uchun darslik. – Toshkent: O’zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. – 34 b.
22. Kattayev K. Imom Marg’inoniy va Chokardiza tadqiqotlaridagi xatoliklar islohi. – Toshkent: Hilol media, 2018. – 19 b.